


Yanvar –oktyabr 2018 yil


Chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar – oktyabr oylarida 8876,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,6 foizga oshdi. Shundan umumiy ovqatlanish aylanmasi 172,0 mlrd. so'mni va o'tgan yilga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,4 foizni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati**  
(mlrd. so'm, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahrining ulushi 26,0 foizni, Urgut tumani 12,6 foiz, Pastdarg'om tumani 7,5 foiz, Bulung'ur tumani 7,5 foiz va Kattako'rg'on shahri 5,3 foiz chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, (foizda)**



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 2367,7 ming so'mni tashkil etdi, 2017 yil yanvar-oktyabr oylarida 1929,2 ming so'mni tashkil qilgan edi.

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Kattaqo'rg'on shahri 5385,7 ming so'm, Samarqand shahri 4334,5 ming so'm va Bulun'gur tumanida 3709,4 ming so'm kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 172043,4 mln. so'mni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,9 foizni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Viloyatda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2367,7 ming so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,6 foizni tashkil etdi. Shundan Samarqand shahri 4334,5 ming so'm va o'tgan yilga nisbatan 105,0 foizni, Kattaqo'rg'on shahri




5385,7 ming so'm va 103,2 foizni, Jomboy tumani 1474,4 ming so'm va 102,3 foizni, Samarqand tumani 1869,0 ming so'm va 101,1 foizni, Urgut tumani 2294,0 ming so'm va o'tgan yilga nisbatan 105,3 foizni tashkil qildi.

| Hududlar nomi             | Ming so'm     | O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda |
|---------------------------|---------------|---|
| <b>Samarqand viloyati</b> | <b>2367,7</b> | <b>103,6</b>                                |
| Samarqand sh.             | 4334,5        | 105,0                                       |
| Kattaqo'rg'on sh.         | 5385,7        | 103,2                                       |
| Bulung'ur                 | 3709,4        | 102,9                                       |
| Jomboy                    | 1474,4        | 102,3                                       |
| Ishtixon                  | 1532,7        | 102,3                                       |
| Kattaqo'rg'on             | 1366,1        | 104,6                                       |
| Narpay                    | 1586,2        | 104,7                                       |
| Nurobod                   | 2356,5        | 104,9                                       |
| Oqdaryo                   | 1814,6        | 104,5                                       |
| Payariq                   | 1406,4        | 103,4                                       |
| Pastdarg'om               | 1946,0        | 101,4                                       |
| Paxtachi                  | 2527,8        | 102,0                                       |
| Samarqand                 | 1869,0        | 101,1                                       |
| Tayloq                    | 1418,2        | 101,9                                       |
| Urgut                     | 2294,0        | 105,3                                       |
| Qo'shrabot                | 2390,8        | 102,6                                       |

## **KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI**

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,7 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 90,6 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining 6044,9 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 68,1 foizni tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning chakana tovar aylanmasi 1999,2 mlrd. so'mni, o'tgan yilga nisbatan 105,9 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 22,5 foizini tashkil etdi.